

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 08 | pp. 232-238 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VAXARAJAT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH



N.Karimova

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida daromad va xarajat auditini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy masalalar bo'yicha tahlil amalga oshirilgan. Shuningdek, audit jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan, jumladan, avtomatlashtirilgan tizimlar va analitik vositalardan qanday foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Xulosa sifatida, samarali audit strategiyalari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Bank daromadi, bank xarajati, sof foyda, bank auditi, tijorat banklari, ichki audit xizmati, buxgalteriya hisobi va hisoboti, auditor, auditor xulosasi, moliyaviy hisobot, bank kengashi, auditorlik kompaniya, audit qo'mitasi, bank boshqaruvi, kredit tashkilotlari, tashqi audit, auditorlik hisoboti.

Аннотация: В данной статье проведен анализ теоретических и практических вопросов совершенствования аудита доходов и расходов в коммерческих банках. Также рассматриваются возможности использования современных технологий, включая автоматизированные системы и аналитические инструменты, в аудиторских процессах. В заключение показано, что эффективные аудиторские стратегии способствуют обеспечению финансовой устойчивости коммерческих банков и повышению их конкурентоспособности.

Ключевые слова: банковские доходы, банковские расходы, чистая прибыль, банковский аудит, коммерческие банки, служба внутреннего аудита, бухгалтерский учет и отчетность, аудитор, аудиторское заключение, финансовая отчетность, банковский совет, аудиторская компания, комитет по аудиту, управление банком, кредитные организации, внешний аудит, аудиторский отчет.

Annotation: This article analyzes the theoretical and practical issues of improving income and expense auditing in commercial banks. It also discusses the possibilities of using modern technologies, including automated systems and analytical tools, in audit processes. In conclusion, it demonstrates that effective audit strategies contribute to ensuring the financial stability of commercial banks and enhancing their competitiveness.

Keywords: bank income, bank expenses, net profit, bank audit, commercial banks, internal audit service, accounting and reporting, auditor, audit opinion, financial reporting, bank board, audit firm, audit committee, bank management, credit organizations, external audit, audit report.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, banklar iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Banklar iqtisodiyotning qon tomiri deb tariflasak xato bo'lmaydi. Yurtimizda banklarning roli ayniqsa iqtisodiyotning yetkachi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qayta jihozlash, uy-joylar qurilishini, transport va infratuzilmaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish bo'yicha ayniqsa ahamiyatlidir. Tijorat banklari faoliyatiga real baho berish, aksiyadorlar va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq, ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshiruvlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Audit olib borish tartibi qonunlar, hukumat qarorlari va idoraviy yo'l-yo'riqlar bilan tartibga solib boriladi. Mijozning moliyaviy holatini yaxshilash, investorlar, kreditorlarni jalb etishga yordam beradi, moliya, soliq va boshqa sohalarida maslahat beradi. Audit xulosasi barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun, hokimiyat va sud idoralari uchun huquqiy hujjat hisoblanadi. Tijorat banklarining audit xulosalari matbuotda e'lon qilinishi lozim. O'zbekistonda bank tizimi shakllanish davridayoq bank auditini xalqaro talablarga javob beradigan darajada tashkil etishga alohida e'tibor berildi. Hozirgi paytda tijorat banklari, avvalambor, Markaziy bank tomonidan diqqat bilan nazorat qilib borish obyekti sanaladiki, bu O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunda ham o'z ifodasini topdi. Qonunning 50-moddasida aytiladiki, Markaziy bank bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib boradi.

Adabiyotlar sharhi. Tijorat banklarida daromad va xarajat auditi mavzusi so'nggi yillarda, ayniqsa, O'zbekistonning rivojlanayotgan moliyaviy muhitida, katta e'tiborni jalb qilmoqda. Quyida ushbu mavzu bo'yicha turli mualliflar tomonidan yozilgan ayrim asarlar keltirilgan.


Avvalo amaldagi qonunchilikka muvofiq banklarning yillik moliyaviy hisobotlari va banklar guruhining yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi majburiyligi belgilangan [1].

Iqtisodchi A.Mamatov moliyaviy muassasalardagi audit amaliyotlarini keng qamrovda ko'rib chiqadi, O'zbekiston banklari duch keladigan maxsus muammolar va imkoniyatlarga e'tibor qaratadi. Maqolada daromad va xarajatlarni audit qilish metodologiyalari muhokama qilinadi va aniqlik hamda milliy reglamentlarga muvofiqlikning ahamiyati ta'kidlanadi [2].

Olim R.Abruhmanovning maqolasida zamonaviy audit texnikalari va ularning tijorat banklaridagi qo'llanilishi haqida ma'lumot beradi. Abdurahmanov ichki auditlarning daromad va xarajatlarni boshqarishdagi rolini ta'kidlaydi va audit samaradorligini oshirish uchun ilg'or texnologik vositalarni qabul qilishni tavsiya etadi [3].


Adabiyotlar daromad va xarajat auditining tijorat banklarida moliyaviy shaffoflik ta'minlashdagi ahamiyatini oshayotganini ko'rsatmoqda. Mualliflar zamonaviy metodologiyalar, mustahkam ichki nazorat va texnologiyaning integratsiyasiga ehtiyojni ta'kidlaydilar. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu amaliyotlarning O'zbekiston banklarining moliyaviy barqarorligiga ta'sirini o'rganishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot obyekti ko'p yillar davomida mamlakatimiz moliya xizmatlari bozorida yetakchi o'rinni egallab kelayotgan, yurtimiz yirik davlat banklaridan biri AJ "Asakabank" quyidagi ma'lumotlaridan ko'rib chiqamiz.



1-rasm. AJ "Asakabank"ning daromadlari dinamikasi yillar kesimida (mlrd, so'mda)

1-rasmda AJ "Asakabank" ning daromadlari 2024-yil 1-yanvar xolatiga 7trln.698mlrd so'mni tashkil qilgan. Uning 5trln. 861mlrd. so'mi, ya'ni 76%i foizli daromadlardir. O'tgan yili umumiy daromadlar xisobi 5trln.8mlrdni tashkil qilib, bu ko'rsatkich joriy yilga nisbatan 2trln690mlrd so'mga kamlini ya'ni joriy daromadlari o'tgan yilga nisbatan 54%foizga oshganini ko'rishimiz mumkin. Daromadlar tarkibini 2021-yil yanvar holatidan so'ngi 4 yilini tahlil qilarkanmiz, AJ Asakabank daromadlari shu vaqt mobaynida umumiy 49%ga oshganini bilamiz. Foizli daromadlarning asosiy qismini berilgan kreditlar uchun olingan foiz daromadlari tashkil etgan bo'lsa foizsiz daromadlar asosan vositachilik va boshqa xizmatlardan kelib tushgan. Tahlilimiz natijasida ko'rishimiz mumkinki, bankimiz daromadlari tarkibi asosan foizli daromadlar xisobiga ortgan va so'ngi 4 yilni har bir yili umumiy daromadlarning 60%dan ortig'ini foizli daromadlar tashkil qilgan. Ushbu xolat bank uchun ijobiy deb aytish mumkin, chunki bankning foizli daromadi asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib uning ulushi 60-65 %ni tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.



2-rasm. AJ "Asakabank" ning xarajatlari dinamikasi yillar kesimida, (mlrd.so'm)

Banklarning xarajatlar tarkibini tahlil qilish ularning samaradorligini oshirish yo'llarini topishga yordam beradi. AJ "Asakabank" xarajatlari 2024-yil 1-yanvar holatiga 6 trln. 73mlrd. so'mni tashkil qilgan o'tgan yilga nisbatan 2 trln. 741 mlrd. so'mga ya'ni 82%ga o'saganini ko'rishimiz mumkin. So'ngi 4 yil davomida bank xarajatlari 2trln. 737mlrd. so'mga ortgan. Xarajatlar tarkibining asosiy qismini foizli xarajatlar egallagan. Joriy yilda 79%ini foizli xarajatlar tashkil qilib, 4 trln. 770 mlrd. so'm bo'lgan foizsiz xarajatlar esa 15%ni egallab 890 mlrd. so'mni, operatsion xarajatlar esa 413 mlrd. so'm ya'ni 7%ni tashkil qilgan. Xarajatlar tarkibida foizli xarajatlar o'tgan yilga nisbatan juda katta ya'ni 129%ga (2 trln. 684mlrd. so'm) ortganini ko'ramiz. Shu bilan birgan foizsiz xarajatlar o'tgan yilga nisbatan 61mlrd.so'mga ya'ni, 14%ga kamayganini korishimiz mumkin.

Banklarning foizli xarajatlari ularning asosiy operatsion xarajat turlari bo'lib, jalb qilingan mablag'lar uchun to'lanadigan foizlardan iborat. Foizli xarajatlar bank faoliyatining qanchalik samarali va barqaror bo'lishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu xarajatlarni tahlil qilish bankning umumiy moliyaviy holati va bozor sharoitlariga qanday moslashishini tushunish uchun zarur. Biz avvalgi ma'lumotlarda AJ Asakabank foizli xarajatlari jriy yil 1-yanvar xolatiga keskin oshib ketganini ko'rdik.

Tadqiqot natijasida shuni ayta olamizki, audit jarayonlarini elektron tarzda olib borish lozim. Masalan: auditor yordamisiz tekshiruvni olib borolmaydigan joylardan biri bu-kassa operatsiyalari, chunki kassada naqd pullar, xorijiy valyutalar, qimmatbaho qog'ozlar, omonat daftarchalari va shunga o'xshagan ko'plab qimmatliklar saqlanadigan joy hisoblanadi. Keyingi o'rinlarda kredit papkalari va chakana xizmati operatsiyalari turadi. Bularni tekshirish uchun ham auditor kerak bo'ladi. Qolgan boshqa barcha turdagi operatsiyalarni elektron tarzda kompyuterlar yordamida tekshirishni yo'lga qo'yish lozim. Shunda bank kam xarajat bilan ko'proq daromadga erishadi. Ya'ni buni, hisob-kitoblarda texnik va dasturiy ta'minot xatolari deb qarasaq to'g'ri bo'ladi deb o'ylayman. Noto'g'ri dasturiy ta'minot konfiguratsiyasida bankning moliyaviy hisob-kitob dasturlarida texnik

xatoliklar yoki noto'g'ri konfiguratsiya bo'lishi natijasida daromad va xarajatlar noto'g'ri aks ettiriladi. Shuningdek, operatsiyalarni kiritishda yoki dasturlar orqali avtomatlashtirilgan jarayonlarda insoniy xatolar tufayli noto'g'ri ma'lumotlar kiritilishi mumkin. Bunga sabab, ko'p banklar hali ham zamonaviy talablarni qondirmaydigan eski dasturiy ta'minotlardan foydalanmoqda. Xodimlarning yetarli malakaga ega emasligi sababli ham, kiritish va dasturlarni boshqarishdagi tajribasizlik tufayli texnik xatolar yuzaga keladi. Buni natijasida noto'g'ri moliyaviy hisobotlar shakllanishi oqibatida bankning real daromadlari va xarajatlari noto'g'ri aks ettiriladi, bu esa boshqaruv va investorlar uchun ishonchsizlikka olib keladi. Bank texnologiyalaridan foydalanishdagi xatolar moliyaviy jarayonlarni nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Mazkur xatolik va muammoni yechimi sifatida bankning texnologik infratuzilmasini yangilash va avtomatlashtirishni kuchaytirish. Shuningdek, moliyaviy tizimlar va dasturlar bilan ishlaydigan xodimlar uchun texnik bilimlarni oshirish bo'yicha treninglar o'tkazish zarur.

Bank daromadlari va xarajatlarini audit qilinishda tez tez uchraydigan xatoliklardan biri, daromadlarni noto'g'ri tasniflashdir. Bunda bankning foizli daromadlari va xizmat ko'rsatishdan tushgan daromadlari noto'g'ri kategoriyalarda tasniflanishi. Moliyaviy operatsiyalarning noto'g'ri aks ettirilishi. Ya'ni, ba'zi operatsiyalar o'z vaqtida va tegishli bo'limlarda aks ettirilmaligi mumkin. Bunga sabab, bankda amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarning xilma-xilligi va murakkabligi xatolarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, bank xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) mos kelmaydigan usullarda daromadlarni hisob-kitob qilishi. Natijada, noto'g'ri tasniflangan daromad va xarajatlar bankning moliyaviy natijalarini ishonchsiz qiladi. Bu xato va kamchiliklarchi yechimi, bank moliyaviy operatsiyalari aniq va xalqaro standartlarga mos keladigan usullarda tasniflanishi kerak. Tasniflashdagi xatolarni kamaytirish uchun avtomatlashtirilgan audit vositalaridan foydalanish kerak.

Xulosa. Tijorat banklarida daromad va xarajatlar auditini takomillashtirish bugungi kundagi murakkab moliyaviy muhitda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon orqali banklar o'z moliyaviy faoliyatining shaffofligini oshirib, moliyaviy resurslarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish, texnologiyalarni joriy etish va ichki nazoratni kuchaytirish orqali bank raqobatbardoshlikni saqlab qoladi va investorlarga ishonchli hamkor sifatida tanilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Audit jarayonlarini takomillashtirish orqali bank risklarni boshqarish va moliyaviy yo'qotishlarning oldini olishni ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan tizimlar va texnologiyalar bank faoliyatining samaradorligini oshiradi, bu esa insoniy xatolarni kamaytiradi va audit jarayonlarining tezkor va aniq bajarilishini ta'minlaydi. Xodimlar malakasini oshirish esa ularni zamonaviy moliyaviy tizimlarga moslashishiga yordam beradi.

Banklar uchun moliyaviy shaffoflik va ishonchlilik dolzarb muammolar bo'lib, ularning hisobotlari va audit jarayonlari xalqaro standartlarga mos kelishi nafaqat ichki, balki xalqaro miqyosda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi. Shu sababli, tijorat banklarida daromad va xarajatlar auditini takomillashtirish hozirgi kunda bank sektorining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi va u banklarning barqarorligi, ishonchliligi hamda uzoq muddatli muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hisobotlarda daromadlarni vaqtda aks ettirmaslik natijasida xosil bo'ladigan xato, kamchiliklar mavjud. Ya'ni ba'zi hollarda bank kelajakdagi daromadlarni joriy davrda aks ettiradi yoki aksincha, joriy daromadlarni kelajakdagi hisobotga kiritadi. Shu qatorda, xarajatlar noto'g'ri davrda aks ettirilib, moliyaviy holatni sun'iy ravishda yaxshilash kabi urinishlarni ham misol qilib olishimiz mumkin. Bunga sabab, moliyaviy natijalarni yaxshilashga urinishdir. Ya'ni bank o'zining moliyaviy holatini yaxshiroq ko'rsatish uchun daromad va xarajatlarni kechiktiradi yoki noto'g'ri davrda aks ettiradi. Mazkur xatoliklar ortidan, daromad va xarajatlarni noto'g'ri davrda aks ettirish bankning haqiqiy moliyaviy natijalarini noto'g'ri ko'rsatadi. Shuningdek, noto'g'ri hisobotlar bankni huquqiy muammolarga olib kelishi va jarimalar qo'llanilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu oqibatlarini oldini olish uchun quyidagi yehimni taklif qilsak madsaga muvofiqdir. Bank moliyaviy operatsiyalarini haqiqiy davrlar bo'yicha aniq aks ettirishi va ularni sinchiklab nazorat qilishi kerak. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimlarini boshqaruv darajasida kuchaytirish orqali hisobotdagi vaqt xatolarini oldini olish lozim.

Bank ichki nazorat tizimining zaifligi natijasida kelib chiqadigan muammolar ham bank daromad va xarajatlar auditni olib borishda o'z kamchiliklarini ko'rsatadi. Bunda, ichki audit jarayonlari yetarlicha kuchli bo'lmasa, bankning moliyaviy operatsiyalari ustidan samarali nazorat amalga oshirilmaydi. Bankning ichki nazorat siyosatlari to'liq amalga oshirilmasa, moliyaviy xatolar aniqlanmay qoladi. Bunday kamchiliklarga bankning ichki audit tizimlariga yetarli mablag' yoki texnologik vositalar ajratilmaganligi, ichki auditorlar bank moliyaviy jarayonlarini to'liq kuzata oladigan darajada malakaga ega emasligini sabab qilib olishimiz mumkin bo'ladi. Bu kamchiliklar oqibatida, moliyaviy xatolar, firibgarliklar va moliyaviy yo'qotishlar yuzaga kelishi mumkin. Ichki audit bo'limlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minishi, ichki audit bo'limlariga yetarli malakaga ega bo'lgan xodimlarni jalb qilinishi va ularni o'qitilishi natijasida ichki nazorat tizimidagi zaifliklar ortidan daromad va xarajatlarni auditini olib borishda yuzaga keladigan muammlarni yechish mumkin.

Bank ma'lumotlarini moliyaviy siyosat va standartlariga mos kelmasligi. Bunda, bank moliyaviy siyosati xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tayyorlanmaganligi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) rioya qilmasligi yoki noto'g'ri interpretatsiya qilishi natijasida kelib chiqadigan muammolar. Bunda, moliyaviy siyosatni xalqaro me'yorlarga moslashtirishga yetarlicha e'tibor berilmagan bo'lishi mumkin. Yoki, bank xalqaro standartlarga moslashishda sust harakat qilishi yoki ularga noto'g'ri moslashtirilgan hisobot siyosatini qo'llashi oqibatida paydo bo'ladigan muammolardir. Xalqaro standartlarga mos kelmagan hisobotlar natijasida, bank xorijiy investorlar va hamkorlar bilan ishlash imkoniyatini cheklanadi. Bankda xalqaro standartlarga mos keladigan siyosatni joriy etish va doimiy nazorat qilish tizimini yaratish zarurligi, mazkur muammo oldini oladi.

Xulosa o'rnida shuni fikrlarimizni quyidagicha jamlashimiz mumkin: Bank daromadlari va xarajatlari audit jarayonida uchraydigan xatoliklar va muammolar bankning moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu xatoliklarni bartaraf etish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish, xodimlarni muntazam ravishda malaka oshirish va xalqaro hisobot standartlariga qat'iy rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Bank va banklar guruhida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari hamda banklarning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqi uchun auditorning malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi" Nizom, AV-3432 08.05.2023.
2. Mamatov, A. (2020). Moliyaviy Muassasalar Auditi: Nazariya va Amaliyot O'zbekiston Misolida. Toshkent: Toshkent moliya instituti.
3. Abdurakhmanov, R. (2019). Bank Auditi: Zamonaviy yondashuvlar va texnikalar. Toshkent: Bank-moliya akademiyasi.
4. Saidov, F. (2018). Bank Operatsiyalarini Audit Qilishdagi Muammolar. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

